



**15-16 APREL  
2022**

**TOSHKENT  
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR  
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**



**CONFERENCES.UZ**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI**

**“TADQIQOT.UZ”  
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:  
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH  
ISTIQBOLLARI**

**II  
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA  
MATERIALLARI**

**TO‘PLAMI**

**Toshkent - 2023**

**Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:**  
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

**Tahrir kengashi:**

g.f.d., professor Hikmatov F.H.  
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.  
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

**Kengash a'zolari:**

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.  
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.  
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.  
PhD, dotsent Prenov Sh.M.  
PhD, dotsent Raxmonov D.N.  
PhD, dotsent Raxmonov K.R.  
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

**Mas'ul muharrir:**

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz



## KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA XITOIY TAJRIBASINI O‘RGANISH

**Toshpulatova Malika Ulug‘bek qizi**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xitoy Xalq Respublikasining kambag‘allikni qisqartirishdagi tajribasi hamda islohotlari yoritilgan. Shuningdek, kambag‘allikni qisqartirish vazifalarini amalga oshirish bosqichlari va mehanizmlari, chora-tadbirlari hamda xulosa keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** kambag‘allik, kambag‘allik darajasi, Xitoy.

Xitoy dunyodagi eng ko‘p aholiga ega mamlakat hisoblanib (1.412 mlrd.)<sup>37</sup>, mamlakatdagi kambag‘allik quyidagi omillar hisobiga yuzaga kelgan:

- hududining yirikligi (9,597 mln. km. kv), hududlar rivojlanish darajasining nomutanosibli, hududlarda narxlar darajasining keskin farqlarlanishi;
- mamlakat bo‘yicha, ayniqsa qishloq joylarida ta‘limni rivojlantirish uchun yetarli mablag‘larning ajratilmaganligi sababli aholi savodxonlik darajasining pastligi;
- uy xo‘jaliklarini ro‘yxatga olish (xukou) tizimi bilan qishloqlardan shaharlarga migratsiyaning cheklab qo‘yilganligi;
- yerga egalik qilish munosabatlarining rivojlanmaganligi, uni aholiga berish tizimidagi korrupsiya va boshqalar.

Mamlakatdagi kambag‘allik darajasining kamayishi bevosita 1970 yillar so‘ngida Den Syaopin rahbarligida chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, bozor mexanizmlarini joriy etish, agrar sohani, xususan yerga egalik qilish tizimini isloh qilish, tashqi ochiqlik siyosatini olib borish natijasidagi barqaror iqtisodiy o‘shish bilan bog‘liq.

Xitoyning keng ko‘lamli qashshoqlik darajasini pasaytirish uning tez iqtisodiy o‘shishi sharoitida erishildi. Rasmiy statistik ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 1979-2003 yillarda real YaIM yiliga o‘rtacha 9,4 foizga o‘sib, 1980 va 1990 yillarning birinchi yarmida 10 foizdan oshdi. Shahar va mintaqaviy nomutanosiblik sezilarli darajada oshgan bo‘lsa-da, iqtisodiy o‘shish, umuman olganda, aholining ko‘pchiligiga, shu jumladan kambag‘allarga ham foyda keltirdi va so‘nggi yigirma yil ichida qashshoqlikni kamaytirishning asosiy kuchiga aylandi.

---

<sup>37</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Demographics\\_of\\_China](https://en.wikipedia.org/wiki/Demographics_of_China)



1. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish milliy islohotlari (1978-1985)

2. Kambag'allikni kamaytirish va rivojlanish milliy dasturlari (1986-1993)


3. Kambag'allikni qisqartirishning yetti yillik ustuvor dasturi (1994-2000)

4. Kambag'allikni qisqartirish Xitoyning qishloq joylarini rivojlantirish dasturi (2001-2010)

5. Kambag'allikni qisqartirishning manzilli strategiyasi (2011-2020)

### 1-rasm. Kambag'allikni qisqartirish dasturlari<sup>38</sup>

Iqtisodiy o'sish tez bo'lganda, 1980-yillarning boshi va 1990-yillarning o'rtalarida kuzatilganidek, qashshoqlikning qisqarishi ham keskinroq bo'ldi. Xitoyda kambag'allik qishloq hodisasi bo'lganligi sababli (1980-yillarning boshlarida mutlaq qashshoqlik shahar aholisining atigi 0,3 foizi, qishloq aholisining 28 foizi uchun haqiqat edi), qishloq joylarida o'sish (qishloqdan shaharga migratsiya bilan bir qatorda) kambag'allikni kamaytirish uchun eng muhimi bo'lgan. Qishloqlarda iqtisodiy o'sish sekinlashganda, o'sishning qashshoqlikka ta'siri zaiflashdi. Natijada, Xitoy 1980-yillarning ikkinchi yarmi va 1990-yillarning oxirlarida tengsizlikning kuchayishi bilan birga kambag'allikni qisqartirish bo'yicha nisbatan sekin o'sishni kuzatdi (2-rasm).



### 2-rasm. Qashshoqlik darajasi, tengsizlik va o'sish 1981-2000 yillar<sup>39</sup>

#### 1. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish milliy islohotlari (1978-1985)

Ushbu bosqichda qishloq joylaridagi institusional islohotlar orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni oshirish va qishloq joylarida iqtisodiy o'sishni ta'minlash eng muhim vazifa sifatida belgilangan.

<sup>38</sup> Adabiyotlarni o'rganish natijasida muallif tomonidan tuzildi.

<sup>39</sup> [https://web.worldbank.org/archive/website00819C/WEB/PDF/CHINA\\_-4.PDF](https://web.worldbank.org/archive/website00819C/WEB/PDF/CHINA_-4.PDF)

Bu yo‘nalishdagi fundamental islohot – shartnoma doirasida uy xo‘jaliklariga qishloq joylaridagi yerlarda nimani ekish va uni qanday yetishtirishni tanlash imkoniyati berilgan. Shu bilan birga, hukumat qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotib olish narxlarini oshiradi, qishloq joylarida bozorlar tashkil etilib, qishloq tadbirkorligi rag‘batlantirilgan. Qishloq iqtisodiyotini yuksaltirish uchun Xitoy hukumati qishloqda ishlab chiqarish, taqsimlash tizimlari va xarid narxlarida institutsional islohotlarni boshladi. Asosiy institutsional o‘zgarish Xitoyning qishloqlarida uy xo‘jaligi mas‘uliyati tizimini joriy etish bilan tavsiflangan yer islohoti edi. Qishloq xo‘jaligidagi bu o‘zgarishlar natijasida, 1978-1985 yillar oralig‘ida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish yiliga o‘rtacha 6.5 foizni, uy xo‘jaliklariga to‘g‘ri keladigan real daromadlarning yillik o‘sishi 15.2 foizni tashkil etgan.

## **2. Kambag‘allikni kamaytirish va rivojlanish milliy dasturlari (1986-1993)**

Bu dastur doirasida asosiy e‘tibor o‘ziga xos murakkabliklarga ega, kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan muammoli, chegaraviy hududlarga qaratilgan. Umumiy hisobda 332 milliy darajada kambag‘al shtatlar aniqlab olinib, ularga uch dasturlar orqali yordam ko‘rsatiladi:

- subsidiyalangan qarzlar dasturi – bunda kambag‘al aholiga o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun qarz berilib, uning bir qismi davlat tomonidan qoplangan;
- ish uchun imkoniyat dasturi – fermalar uzluksiz faoliyatini ta‘minlash uchun infratuzilma (yo‘l, sug‘orish tizimlari, ichimlik suvi)ni rivojlantirish;
- davlat byudjetidan grantlar – ta‘lim, tibbiy xizmatlarni yaxshilash, texnologiyalarni rivojlantirish uchun kambag‘al hududlarga mablag‘lar yo‘naltirilgan. Shu bilan birga, vaziyat og‘ir bo‘lgan shtatlarga soliq imtiyozlari joriy qilingan.

Kambag‘allikni kamaytirish va rivojlanish milliy dasturlari fermerlar daromadining oshishiga va kambag‘allik darajasining qisqarishiga xizmat qilgan. Bu davrda kambag‘allik darajasi 125 milliondan 80 millionga kamaygan.

## **3. Kambag‘allikni qisqartirishning yetti yillik ustuvor dasturi (1994-2000)**

Bu dastur doirasida quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borilgan:

- uy xo‘jaliklarida jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni oshirish;
- kambag‘al aholiga yerning sifatini yaxshilash, hosildorlikni oshirish va fermadan tashqari faoliyatlarini yo‘lga qo‘yishda yordam ko‘rsatilgan;
- vaziyat eng yomon bo‘lgan hududlar yo‘llar, elektr energiyasi va bozorlarga chiqish imkoniyati bilan ta‘minlangan;
- boshlang‘ich va o‘rta ta‘lim bilan qamrov darajasini oshirish, tibbiyot xizmatlar sifatini yaxshilash uchun maktablar, shifoxonalar qurilgan, mavjudlari rekonstruksiya qilingan;
- kambag‘al deb e‘tirof etiladigan shtatlar soni 592 taga oshirilib, ular okeanbo‘yi shaharlariga birlashtirilgan;

- yaxshi moliyalashtirishni boshqarish, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha investitsiya tadbirlarini baholash va moliyaviy barqarorlikka e'tibor berish, kredit mablag'larini qaytarish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mablag'larni muqobil faoliyatga o'tkazib yuborish;

- kambag'allikni qisqartirishga barcha vazirlik va idoralar, tashkilotlar, mahalliy hamda xalqaro tashkilotlar jalb etilgan.

#### **4. Kambag'allikni qisqartirish Xitoyning qishloq joylarini rivojlantirish dasturi (2001-2010)**

Bu dastur 2001 yilda boshlanib, uning doirasida avvalgi dasturlarga qaraganda yangicha yondashuvda ish olib borilgan. Bu davrda quyidagi uch yo'nalishda ishlar tashkil etilgan:

- integrasiyalashgan qishloqlarni rivojlantirish dasturi – qishloqlar aholisining takliflari asosida loyihalar shakllantirilib, ularni moliyalashtirish uchun mablag'lar hajmi tashqi ekspertlar va hokimiyat vakillari tomonidan belgilangan.

- mehnat resurslarini kasbga tayyorlash va migratsiya – migratsiyaning ahamiyatini inobatga olgan holda, mehnat resurslarining mamlakatda erkin harakatini ta'minlash, yoshlar bandligini oshirishga qaratilgan siyosat yuritila boshlangan. Mahalliy hokimiyatlar tomonidan mehnat yarmarkalari, kasbga tayyorlash kurslari tashkil etilgan, migrantlar okeanbo'yi hududlarda ishga joylashtirish xizmatlari markazlari yo'lga qo'yilgan.

- shtatlarda sanoatni rivojlantirish – kambag'al hududlarda sanoat ishlab chiqarishini yo'lga qo'yishda boshqa hududlardagi tadbirkorlar ham jalb etilib, ularga Bosh ofis va Xitoy qishloq xo'jaligi banki tomonidan subsidiyalar ajratilgan. Bunda asosiy mezon sifatida kamida 500 nafar kambag'al oilalar vakillarini jalb etish belgilangan.

Ushbu dasturlar natijasida, 2007 yilda kambag'allik darajasi 15 milliongacha kamaygan.

#### **5. Kambag'allikni qisqartirishning manzilli strategiyasi (2011-2020)**

Ushbu strategiyani amalga oshirish 2011 yilda boshlanadi. Strategiyani amalga oshirishda yangi marra – kambag'allik chegarasi 2 300 yuan – belgilanadi. Yangi mezonga ko'ra 2011 yil holatida kambag'allar soni 166 mln.ni tashkil etib, strategiya so'nggiga qadar kambag'allikni butunlay yo'q qilish maqsad qilingan. Bu 2020 yilning 17 oktyabr kuniga to'g'ri kelib, Xitoyda kambag'allikni qisqartirish kuni hisoblanadi.

Kambag'allikni qisqartirishning manzilli strategiyasi quyidagi dasturlarni o'z ichiga oladi:

- ✓ Mahalliy ilg'or sanoatlar
- ✓ Xizmatlar eksporti
- ✓ Yashash murakkab bo'lgan hududlardan aholini ko'chirish
- ✓ Transportni rivojlantirish
- ✓ Atrof-muhitni muhofaza qilish

- ✓ Ta'lim
- ✓ Sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya
- ✓ Moliyalashtirish.

Xulosa qilib aytganda, Xitoy 1978-yildan keyingi islohotlar davrida hukumatning maxsus islohot siyosati va tez iqtisodiy o'sish orqali keng qamrovli kambag'allikni keskin qisqartirdi. Shuningdek, Xitoy qishloq xo'jaligini rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minladi, kambag'al shtatlar o'rganilib, ularga maxsus dasturlar taklif etildi, boshlang'ich va o'rta ta'limni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Bugungi kunda mamlakatdagi kambag'allik darajasi 0.5-1 foizni tashkil etmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. [https://www.researchgate.net/publication/269667485\\_Poverty\\_Reduction\\_Policies\\_in\\_Malaysia\\_Trends\\_Strategies\\_and\\_Challenges/link/57a973f008aed1b2262454fa/download](https://www.researchgate.net/publication/269667485_Poverty_Reduction_Policies_in_Malaysia_Trends_Strategies_and_Challenges/link/57a973f008aed1b2262454fa/download)
2. [https://en.wikipedia.org/wiki/Demographics\\_of\\_China](https://en.wikipedia.org/wiki/Demographics_of_China)
3. [https://web.worldbank.org/archive/website00819C/WEB/PDF/CHINA\\_-4.PDF](https://web.worldbank.org/archive/website00819C/WEB/PDF/CHINA_-4.PDF)
4. <https://www.brookings.edu/wp-content/uploads/2022/02/Evolution-of-global-poverty.pdf>
5. <https://www.poverties.org/blog/poverty-in-china>
6. <http://www.cnaca.org/english/news/p1a1324226949b4.html>
7. <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/386051/eawp-10.pdf>
8. [https://list.wiki/State\\_Council\\_Leading\\_Group\\_Office\\_for\\_Poverty\\_Alleviation\\_and\\_Development](https://list.wiki/State_Council_Leading_Group_Office_for_Poverty_Alleviation_and_Development)